

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**I.R.Asqarov, M.M.Mo'minov, U.Sh.Xusanov**

Gulxayri(*Althaea officinalis* L) o'simligini kimyoviy tarkibi, gulxayri moyini elementlar analizi va uning xalq tabobatidagi axamyati..... 117

---

BIOLOGIYA

---

**Sh.X.Yusupova, I.I.Zokirov**

No'xat agrotsenozi zararli entomofaunasining ekologo-faunistik tahlili (Shimoliy Farg'ona misolida) ..... 124

**K.Zokirov, A.K.Xusanov, O.T.Sobirov, M.F.Xafizddinov, D.A.Saidjaxonova, S.T.Tillayeva, A.A.Kozimov**

Sharqiy Farg'ona sharoitida terak qabariq qalqondori (*Diaspidiotus slavonicus* (green, 1934)ning biologik va zoogeografik xususiyatlariga oid..... 132

**Z.J.Isomiddinov, D.A.Mirzaliyeva**

Xushbo'y shivit (*Anethum graveolens* L.) o'simligining biokimyoviy xossalari ..... 140

**F.I.Xalmetova, X.S.Axmedov, S.N.Buranova, A.N.Botirbekov**

Reaktiv artriting genetik jihatlari ..... 143

**M.R.Shermatov**

Farg'ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqanotli hasharotlarining (insecta: Lepidoptera) zoogeografik tahlili ..... 147

**K.Z.Yakhyayeva, F.F.Xoltayeva, K.K.Aliyeva**

Chaqaloqlarda buyrak patologiyasi sabalari ..... 154

**M.A.Raximov**

Mollarni go'shtga boqishda genetik imkoniyatlaridan samarali foydalanish ..... 158

**M.X.Mirraximova, N.Y.Nishonboeva**

Genining polimorfizmi atopik dermatitda ..... 162

**G.M.Zokirova**

Farg'ona vodiysi sharoitida *Cinara tujafilina* (Del Guercio, 1909) shirasining (Homoptera, Lachnidae) biologiyasi ..... 166

**E.A.Botirov**

Janubiy Farg'onaning *Agrotis* avlodi tunlam kapalaklari faunasi va ekologik xususiyatlari..... 170

**G.M.Duschanova, N.A.Sobirova, D.A.Abdullayev**

Toshkent botanika bog'i sharoitida *Eremurus lactiflorus* O. Fedtsch. (*Xanthorrhoeaceae*) o'simligi bargining strukturaviy xususiyatlari ..... 176

**F.M.Abduvaliyeva, Sh.S.Xushmatov**

Andijon shahrida joylashgan №1-son maktab o'quvchilarining (1-11 sinf) anfimova testi asosida intellektual rivojlanish darajasi tahlili..... 182

---

GEOGRAFIYA

---

**Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev**

Aholining hududiy taqsimlanishini tahlil qilishida zamonaviy iqtisodiy-geografik tadqiqotlarning zarurati ..... 187

---

ILMIY AXBOROT

---

**G.M.Mansurov**

Nemis tili darslarida til o'yinlari yordamida suhbatlashish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'rganish..... 192

**N.A.Sharopova**

Qashqadaryo viloyati umumta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlari va ularning natijasi ..... 196

**O.A.Maniyozov, A.A.Bozorqulov, O.S.Isomiddinova**

Ta'lim jarayonida birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglamalarni yechimini maple dasturida topish ..... 199

**D.O'.Qarshiyeva**

Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kvest texnologiyasi asosida darslarni tashkil etish kompetentligini rivojlantirish ..... 203

**G.B.Nafasova, B.S.Abdullayeva**

Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ilmiy-mantiqiy dunyoqarashini shakllantirish ..... 208

**JANUBIY FARG'ONANING AGROTIS AVLODI TUNLAM KAPALAKLARI FAUNASI VA  
EKOLOGIK XUSUSIYATLARI****ФАУНА И ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СОВОК БАБОЧЕК РОДОВ  
AGROTIS ЮЖНОЙ ФЕРГАНЫ****FAUNA AND ECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF NOCTUID BUTTERFLIES OF THE  
AGROTIS GENERA OF SOUTH FERGANA****Botirov Elyor Arabboyevich<sup>1</sup>****<sup>1</sup>Botirov Elyor Arabboyevich**

– Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi.

**Annotatsiya**

Janubiy Farg'ona hududida *Agrotis* avlodining 8 ta turlari qayd etildi. Mavsumiy aspektiga ko'ra 5 ta tur bahorgi-yozgi-kuzgi, 1 ta tur bahorgi-yozgi, 2 ta tur yozgi-kuzgi ekologik guruhlariga mansub. Avlod vakillarining barchasi polifag turlardan iborat bo'lib, *Agrotis segetum*, *Agrotis exclamationis*, *Agrotis ipsilon*, *Agrotis bigramma*, *Agrotis lasserrei*, *Agrotis clavis* kabi turlar ozuqa spektriga ko'ra keng polifaglar, *Agrotis obesa*, *Agrotis vestigialis* turlari esa tor polifaglardir.

**Аннотация**

Зарегистрирован 5 видов из рода *Agrotis* в Южной Фергана. По сезонным аспектам 5 видов относится весенне-летни-осенний экологической группы, 1 вид весенне-летней, 2 вида летни-осенней группы.

Все виды этого рода относятся полифагам, такие виды как *Agrotis segetum*, *Agrotis exclamationis*, *Agrotis ipsilon*, *Agrotis bigramma*, *Agrotis lasserrei*, *Agrotis clavis* относятся широким полифагам по спектру питания. *Agrotis obesa* и *Agrotis vestigialis* относятся узким полифагам.

**Abstract**

Registered 5 species of the genus *Agrotis* in South Fergana. According to seasonal aspects, 5 species belong to the spring-summer-autumn ecological group, 1 species to the spring-summer, 2 species to the summer-autumn group.

All species of this genus are polyphages, such species as *Agrotis segetum*, *Agrotis exclamationis*, *Agrotis ipsilon*, *Agrotis bigramma*, *Agrotis lasserrei*, *Agrotis clavis* are broad polyphages in terms of nutrition. *Agrotis obesa* and *Agrotis vestigialis* are narrow polyphages.

**Kalit so'zlar:** Janubiy Farg'ona, Noctuidae, *Agrotis*, ekologik guruh, mezofil, evribiont, ozuqa spektri, polifag.

**Ключевые слова:** Южной Фергана, Noctuidae, *Agrotis*, экологический группа, мезофил, эврибионт, спектр питания, полифаг.

**Key words:** South Fergana, Noctuidae, *Agrotis*, ecological group, mesophile, eurybiont, nutrition spectrum, polyphage.

**KIRISH**

Tangachaqaqnotli hasharotlarning Noctuidae oilasiga mansub *Agrotis* Ochsenheimer 1816 avlodi dunyo miqyosida 300 ga yaqin turlarni o'z ichiga oladi<sup>2</sup>. Ular orasida tabiiy landshaftlar hamda antropogen ekotizimlarni afzal ko'radigan o'ziga xos ixtisoslashgan guruhlar, shuningdek, o'ta plastik evribiontlar va keng polifaglar, shu jumladan qishloq xo'jaligi ekinlarining jiddiy zararkunandalari mavjud. Jumladan, *Agrotis segetum*, *Agrotis ipsilon*, *Agrotis exclamationis* kabi keng tarqalgan turlar ko'plab mamlakatlarning qishloq xo'jaligiga jiddiy iqtisodiy zarar keltiradi. Shundan kelib chiqib, Farg'ona vodiysi entomofaunasi tarkibidagi *Agrotis* urug'iga mansub turlarning populyasiya ko'rsatkichlarini hamda ekotizimlar ozuqa zanjirida tutgan o'zni va ahamiyatini o'rganish borasidagi tadqiqotlar dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Ochsenheimer tomonidan (1816) *Agrotis* avlodining taksonomik tarkibiga jami 46 ta, shu jumladan, 43 ta tur va ilgari boshqa avlodlarga tegishli deb hisoblangan 3 ta turlar kiritilgan. Lekin, ushbu turlarni mazkur avlodga guruhlash sabablari keltirilmagan. Ochsenheimer *Agrotis*ga kiritgan turlarning ko'pchiligi keyinchalik, turli avlodlarga, hatto turli subtribalarga tegishli bo'lib chiqqan. Bu borada Hubner (1821) ko'pchilik *Agrotis* turlarini boshqa avlodlarga birlashtiradi, ularning ba'zilari yangi, ayrimlari esa keyinchalik *Agrotis*ning sinonimlari deb hisoblanadi. Curtis (1827)

<sup>2</sup> <http://dx.doi.org/10.11646/zootaxa.3771.1.1>

## BIOLOGIYA

o'zgaruvchan turlarning ushbu guruhini tavsiflash qiyinligini ta'kidlaydi va erkak kapalaklarning mo'ylov tiplariga ko'ra uchta guruh turlarga ajratadi. Boisduval tomonidan chop etilgan (1829) Yevropa tangachaqanotlilarining (Lepidoptera) ro'yxatida, Hubner boshqa avlodlarga mansub deb ko'rsatgan bir nechta turlar *Agrotis* urug'iga qayta kiritiladi va ushbu ro'yxat hozirgi taksonomik klassifikatsiyaga nisbatan yaqin keladi<sup>3</sup>.

Rossiyaning tangachaqanotli hasharotlar katalogiga (2019) *Agrotis* avlodiga mansub 34 ta turlar kiritilgan<sup>4</sup>.

Eronlik tadqiqotchilar Sh. Feizpoor va hammulliflarining ta'kidlashicha (2014), Yaqin Sharq va unga qo'shni hududlarda 38 ga yaqin *Agrotis* urug'i turlari mavjud. Jumladan, Eronda 16 tur, Turkiyada 19 tur, Isroilda 19 tur, Turkmanistonda 6 ta tur, Kiprda esa 8 ta tur qayd etilgan<sup>5</sup>.

G'arbiy Qozog'istonning cho'llari va janubiy dashtlarida *Agrotis* avlodiga kiruvchi 10 ta turlar aniqlangan [2]. Farg'ona vodiysi bilan chegaradosh hisoblangan Qirg'iziston respublikasida 7 ta tur *Agrotis* lar qayd etilgan<sup>6</sup>.

O'zbekiston entomofaunasining tunlam kapalaklari faunasini o'rganishga oid alohida tadqiqotlar Qizilqum cho'llari, Qoraqalpog'iston, Xorazm vohasi, Quyi Amudaryo okrugi hududlarining tabiiy hamda antropogen ekotizimlari misolida olib borilgan bo'lib, mazkur ishlarning natijalarida *Agrotis* urug'ining tur tarkibiga oid ma'lumotlar uchraydi. Xususan, tadqiqotchilar tomonidan Qizilqum cho'llarida 6 ta, Qoraqalpog'iston hududida 3 ta, Xorazm vohasida 5 ta, Quyi Amudaryo okrugida esa 10 ta *Agrotis* turlari qayd etilgan [1; 5; 6].

Farg'ona vodiysi agrosenozlari zararkunanda hasharotlarini o'rganishga oid tadqiqotlarda ham *Agrotis* urug'ining ayrim turlari jiddiy zararkunandalar qatorida qayd etilgan. Jumladan, X.Mustofoqulovning ishlarida (1992) Farg'ona vodiysida g'o'za, tamaki va shaftoli bog' agrosenozlari asosiy zararkunandasi hisoblangan kuzgi tunlamni miqdor zichligini entomofaglar vositasida boshqarish uslublari yoritib berilgan [4]. I.Zokirovning (2019) Markaziy Farg'onaning sabzavot-poliz ekinlari entomofaunasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarida sabzavot-poliz ekinlarida ushbu avlodga mansub 5 ta tur uchrashganligi qayd etilgan [3].

#### TADDIQOT OBYEKTI VA USLUBLARI

Janubiy Farg'ona hududining *Agrotis* avlodi tunlam kapalaklari faunasini o'rganish ishlari 2019-2022 yillar davomida Quvasoy shahri, Quva, Farg'ona, So'x tumanlari hududlaridagi agrosenozlarda olib borildi. Kapalaklarni yig'ish asosan kechalari, tungi yoritgichli moslama yordamida amalga oshirildi. Yig'ilgan kapalaklarni har bir turining erkak va urg'ochi individlaridan 2 tadan na'munasi ajratib olinib, kolleksiya tayyorlandi. Yig'ilgan materiallarni aniqlashda entomologik aniqlagichlar va elektron kataloglardan foydalanildi<sup>7</sup>.

Na'munalar Quva tumani Karkidon suv ombori atrofi (40°27'03"N, 72°03'32"E), Quvasoy shahri Kokilon (40°18'21"N, 71°54'40"E), Chinortagi qishloqlari (40°17'55"N, 71°57'18"E), Farg'ona tumani Vodil (40°10'26"N, 71°43'39"E), Satkak (40°24'41"N, 71°41'49"E), Chimyon (40°15'22"N, 71°33'23"E) qishloqlari, So'x tumani Qizilqiyoc (39°56'42"N, 71°5'53"E), Sarikanda (39°56'55"N, 71°7'48"E) qishlog'ining aholi tomorqalari va fermer xo'jaliklaridagi g'o'za, makkajo'xori, jo'xori, beda, loviya, mosh, no'xot, soya, yer yong'oq, g'o'za, kartoshka, pomidor, shirin qalampir, karam kabi ekinzorlar va malina, olxo'ri, olma, nok, shaftoli, kabi mevali bog'lardan yig'ildi.

#### OLINGAN NATIJALAR

Tadqiqot hududidan yig'ilgan namunalar orasida *Agrotis* avlodi tunlam kapalaklarining 8 ta turi qayd etildi (1-rasm). Har bir turning taksonomik o'rni, mavsumiy aspekti, ekologik guruhi va ozuqa spektri o'rganildi (1, 2- jadvallar).


<sup>3</sup> <http://dx.doi.org/10.11646/zootaxa.3771.1.1>

<sup>4</sup> [https://www.researchgate.net/publication/338865579\\_Catalogue\\_of\\_the\\_Lepidoptera\\_of\\_Russia](https://www.researchgate.net/publication/338865579_Catalogue_of_the_Lepidoptera_of_Russia)

<sup>5</sup> <http://dx.doi.org/10.1093/jis/14.1.95>

<sup>6</sup> <http://dx.doi.org/10.23885/181433262021171-87104>

<sup>7</sup> [https://www.researchgate.net/publication/338865579\\_Catalogue\\_of\\_the\\_Lepidoptera\\_of\\_Russia](https://www.researchgate.net/publication/338865579_Catalogue_of_the_Lepidoptera_of_Russia)



1-rasm. *Agrotis* avlodi tunlam kapalaklari: A- *Agrotis segetum*, B- *Agrotis exclamationis*, C- *Agrotis obesa*, D- *Agrotis ipsilon*, E- *Agrotis lasserrei*, F- *Agrotis bigramma*, J- *Agrotis clavis*, H- *Agrotis vestigialis* (rasmlar xalqaro kataloglardan olingan<sup>8</sup>)

1-jadval

Janubiy Farg'ona hududida aniqlangan *Agrotis* avlodi tunlam kapalaklarining ekologik guruhlari, ozuqa ixtisosligi va mavsumiy aspektlari

№	Tur nomi	Ekologik guruhi		Ozuqa ixtisosligi	Mavsumiy aspekti
		Mezofil	Evrībiont	Poligofag	
1.	<i>Agrotis segetum</i> (Denis & Schiffermüller, 1775)		+	+	Bahorgi-yozgi-kuzgi
2.	<i>Agrotis exclamationis</i> Linnaeus, 1758		+	+	Bahorgi-yozgi
3.	<i>Agrotis obesa</i> Boisduval, 1829	+		+	Bahorgi-yozgi-kuzgi
4.	<i>Agrotis ipsilon</i> Hufnagel, 1766		+	+	Bahorgi-yozgi-kuzgi
5.	<i>Agrotis lasserrei</i> Oberthur, 1881		+	+	Bahorgi-yozgi-kuzgi
6.	<i>Agrotis bigramma</i> Esper, 1790	+		+	Yozgi-kuzgi
7.	<i>Agrotis clavis</i> Hufnagel, 1766	+		+	Bahorgi-yozgi-kuzgi
8.	<i>Agrotis vestigialis</i> <a href="#">Hufnagel, 1766</a>	+		+	Yozgi-kuzgi

<sup>8</sup> <https://lepiforum.org/wiki/taxonomy/Noctuoidea/Noctuidae/Noctuinae/Agrotini?view=1&regions=de>

Janubiy Farg'ona hududida aniqlangan *Agrotis* avlodi tunlam kapalaklarining ozuqa spektri

No	Tur nomi	O'simlik oilasi	Ozuqa o'simliklari nomi	O'simlik oilalari bo'yicha o/o' soni	Jami ozuqa o'simligi soni
1.	<i>Agrotis segetum</i> (Denis & Schiffermüller, 1775)	Rosaceae	<i>Prunus armeniaca, Prunus cerasus, Prunus persical, Malus sylvestris, Pyrus communis, Fragaria vesca, Rubius idaeus</i>	7	42
		Vitaceae	<i>Vitis vinifera</i>	1	
		Poaceae	<i>Triticum aestivum, Zea mays, Hordeum vulgare, Sorghum halepense</i>	4	
		Fabaceae	<i>Clycine max, Arachis hypogaea, Medicago sativa</i>	3	
		Asteraceae	<i>Helianthus annuus, Sonchus oleraceus</i>	2	
		Pedaliaceae	<i>Sesamum indicum</i>	1	
		Amaranthaceae	<i>Spinacia oleracea, Beta vulgaris, Atriplex hortensis</i>	3	
		Malvaceae	<i>Gossypium hirsutum, Hibiscus syriacus</i>	2	
		Solanaceae	<i>Nicotiana tabacum, Solanum tuberosum, Solanum lycopersicum, Solanum melongena, Capsicum annuum</i>	5	
		Brassicaceae	<i>Brassica oleracea, Brassica napus, Raphanus sativus</i>	3	
		Alliaceae	<i>Allium cepa, Allium sativum</i>	2	
		Apiaceae	<i>Daucus carota, Anethum graveolens</i>	2	
		Cucurbitaceae	<i>Cucumis melo, Citrullus lanatus, Cucumis satibus, Cucurbita pepo</i>	4	
		Convolvulaceae	<i>Convolvulus arvensis</i>	1	
Polygonaceae	<i>Rumex patientia</i>	1			
		Moraceae	<i>Morus nigra</i>	1	
2.	<i>Agrotis exclamationis</i> Linnaeus, 1758	Rosaceae	<i>Prunus persical, Malus sylvestris, Fragaria vesca, Pyrus communis</i>	4	29
		Poaceae	<i>Triticum aestivum, Zea mays, Hordeum vulgare, Sorghum halepense</i>	4	
		Fabaceae	<i>Clycine max, Medicago sativa</i>	2	
		Asteraceae	<i>Helianthus annuus, Taraxacum officinale, Artemisia annua</i>	3	
		Amaranthaceae	<i>Spinacia oleracea, Beta vulgaris</i>	2	
		Malvaceae	<i>Gossypium hirsutum, Hibiscus syriacus</i>	2	
		Moraceae	<i>Morus nigra</i>	1	
Solanaceae	<i>Nicotiana tabacum, Solanum tuberosum, Solanum lycopersicum, Solanum melongena</i>	4			

		Apiaceae	<i>Daucus carota</i>	1	
		Cucurbitaceae	<i>Cucumis melo, Citrullus lanatus, Cucumis satibus, Cucurbita pepo</i>	4	
		Polygonaceae	<i>Rumex patientia</i>	1	
		Plantaginaceae	<i>Plantago major</i>	1	
3.	<i>Agrotis obesa</i> Boisduval, 1829	Solanaceae	<i>Nicotiana tabacum, Solanum tuberosum, Solanum lycopersicum,</i>	3	4
		Fabaceae	<i>Medicago sativa</i>	1	
4.	<i>Agrotis ipsilon</i> Hufnagel, 1766	Rosaceae	<i>Crataegus laevigata</i>	1	27
		Poaceae	<i>Zea mays</i>	1	
		Fabaceae	<i>Pisum sativum, Phaseolus vulgaris, Vigna radiata</i>	3	
		Asteraceae	<i>Helianthus annuus, Taraxacum officinale, Artemisia vulgaris</i>	3	
		Pedaliaceae	<i>Sesamum indicum</i>	1	
		Amaranthaceae	<i>Beta vulgaris</i>	1	
		Malvaceae	<i>Gossypium hirsutum, Hibiscus syriacus</i>	2	
		Solanaceae	<i>Nicotiana tabacum, Solanum melongena, Capsicum annum</i>	3	
		Brassicaceae	<i>Brassica oleracea, Brassica rapa, Raphanus sativus</i>	3	
		Apiaceae	<i>Daucus carota, Anethum graveolens</i>	2	
		Cucurbitaceae	<i>Cucumis melo, Citrullus lanatus, Cucumis satibus, Cucurbita pepo, Cucurbita patisson</i>	5	
		Polygonaceae	<i>Rumex patientia</i>	1	
		Plantaginaceae	<i>Plantago major</i>	1	
5.	<i>Agrotis lasserrei</i> Oberthur, 1881	Poaceae	<i>Zea mays</i>	1	4
		Fabaceae	<i>Medicago sativa</i>	1	
		Solanaceae	<i>Nicotiana tabacum, Solanum tuberosum,</i>	2	
6.	<i>Agrotis bigramma</i> Esper, 1790	Poaceae	<i>Triticum aestivum, Zea mays, Hordeum vulgare, Sorghum halepense</i>	4	8
		Fabaceae	<i>Medicago sativa, Onobrychis viciifolia</i>	2	
		Solanaceae	<i>Nicotiana tabacum, Solanum tuberosum,</i>	2	
7.	<i>Agrotis clavis</i> Hufnagel, 1766	Poaceae	<i>Zea mays</i>	1	4
		Brassicaceae	<i>Brassica oleracea</i>	1	

BIOLOGIYA

		Polygonaceae	<i>Rumex patientia, Polygonum aviculare</i>	2	
8.	<i>Agrotis vestigialis</i> <a href="#">Hufnagel, 1766</a>	Asteraceae	<i>Sonchus oleraceus</i>	1	2
		Rubiaceae	<i>Galium</i>	1	

**TAHLILLAR**

Janubiy Farg'ona sharoitida *Agrotis* avlodiga mansub turlarning mavsumiy aspektlar bo'yicha taqsimlanishi tahlil etilganda, *Agrotis segetum*, *Agrotis obesa*, *Agrotis ipsilon*, *Agrotis lasserrei* hamda *Agrotis clavis* bahorgi-yozgi-kuzgi ekologik guruhga, *Agrotis exclamationis* bahorgi-yozgi, *Agrotis crassa*, *Agrotis vestigialis* esa yozgi-kuzgi ekologik guruhga mansub ekanligi aniqlandi. Turlarning aksariyati mezofill hamda evribiont ekologik guruhlarga mansub bo'lib, ular orasida kserofil, gemikserofil yoki gigrofil turlar qayd etilmadi. Xususan, *Agrotis segetum*, *Agrotis exclamationis*, *Agrotis ipsilon*, *Agrotis lasserrei* kabi turlar evribiontlar, *Agrotis obesa*, *Agrotis bigramma*, *Agrotis clavis*, *Agrotis vestigialis* kabi turlar esa mezofillardir. Tadqiqot hududida tarqalgan mazkur avlod vakillarining barchasi polifag turlardan iborat (1-jadval).

*Agrotis* avlodi tunlam kapalaklarining ozuqa spektri tahlil qilinganda, *Agrotis segetum* 16 ta oilaga mansub 42 tur o'simliklarida, *Agrotis exclamationis* 12 ta oilaning 29 tur o'simliklarida, *Agrotis ipsilon* 13 ta oilaning 27 tur o'simliklarida, *Agrotis bigramma* 3 ta oilaning 8 tur o'simliklarida, *Agrotis lasserrei* hamda *Agrotis clavis* 3 ta oilaga mansub 8 tur o'simliklarda, *Agrotis obesa*, *Agrotis vestigialis* turlari esa 2 ta oilaga mansub 2 ta tur o'simliklar bilan trofik aloqaga ega ekanligi aniqlandi (2-jadval).

**Xulosa.** Tadqiqot hududida *Agrotis* avlodining 8 ta turlari qayd etildi. Mavsumiy aspektiga ko'ra 5 ta turlar bahorgi-yozgi-kuzgi, 1 ta tur bahorgi-yozgi, 2 ta turlar yozgi-kuzgi ekologik guruhlarga mansub. Turlar asosan mezofill (4 ta), hamda evribiont (4 ta) turlardan iborat. Shuningdek, avlod vakillarining barchasi polifag turlardan iborat bo'lib, *Agrotis segetum*, *Agrotis exclamationis*, *Agrotis ipsilon*, *Agrotis bigramma*, *Agrotis lasserrei*, *Agrotis clavis* kabi turlar ozuqa spektriga ko'ra keng polifaglar, *Agrotis obesa*, *Agrotis vestigialis* turlari esa tor polifaglardir.

**ADABIYOTLAR**

1. Бекчанов Х.Ў. Қуйи Амударё округи табиий ландшафтларидаги тунламларнинг (Noctuidae) фаунаси, биологияси ва экологияси: Биол. фан. номз.дисс. –Тошкент, 1998. - 113 б.
2. Горбунов П. Ю. Высшие чешуекрылые (Macrolepidoptera) пустынь и южных степей Западного Казахстана. Обзор фауны. –Екатеринбург: И.П. Лисицина, 2011. –192 с.
3. Зокиров И. И. Марказий Фарғонанинг сабзавот-полиз экинлари хашаротлари фаунаси ва экологияси // Биол. фан. докт. дисс.(DSc) автореф.-Тошкент. – 2019. – Т. 59.
4. Мустафакулов Х. Основные вредители в агроценозах важнейших сельскохозяйственных культур Ферганской долины и управление их численностью энтомофагами: Автореф. дисс. ... канд. биол. наук. –Баку, 1992. - 21 с.
5. Рахимов М.Ш. Хоразм воҳаси антропоген ландшафтлари тунламларининг фаунаси, биологияси ва экологияси: Биол. фан. номз....дисс.автореф. –Тошкент, 1997. - 21 б.
6. Bekchanova Mohira Khudaybergan Qizi. On the Fauna of the Moths (Lepidoptera, Noctuidae) of the Lower Amudarya Region. International Journal of Genetic Engineering 2021, 9(1): 1-11. <http://article.sapub.org/10.5923.j.ijge.20210901.01.html>